

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI RESPUBLIKA SUD  
EKSPERTIZA MARKAZI  
SUD-EKSPERTLIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



TERGOVGA QADAR TEKSHIRUVNI AMALGA  
OSHIRUVCHI ORGAN MANSABDOR SHAXSINING,  
SURISHTIRUVCHI, TERGOVCHI, PROKUROR YOKI  
SUDYALAR TOMONIDAN SUD-XATSHUNOSLIK  
EKSPERTIZASI UCHUN NAMUNALARNI TAQDIM  
QILINISHI YUZASIDAN  
USLUBIY TAVSIYALAR



“Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdon shaxsining, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyalar tomonidan sud-xatshunoslik ekspertizasi uchun namunalarni taqdim qilinishi yuzasidan uslubiy tavsiyalar” – Toshkent. 2024 – 34 bet.

### **Tuzuvchilar:**

|                    |   |
|--------------------|---|
| N. M. Mamayusupova | Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi mudiri v.v.b, 1-darajali yurist   |
| S. M. Kudratov     | Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti Kriminalistik, sud-lingvistik va filologik ekspertizalari ilmiy-tadqiqot bo'limi bosh ilmiy xodimi, 2-darajali yurist     |
| A. X. G'ofurjonov  | Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti Kriminalistik, sud-lingvistik va filologik ekspertizalari ilmiy-tadqiqot bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, 2-darajali yurist |

### **Taqrizchilar:**

|                 |   |
|-----------------|---|
| I. R. Astanov   | Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Kriminalistika va sud ekspertizalari” kafedrasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor             |
| G'. Sh. Nabiiev | O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Kriminalistika va sud ekspertizalari” kafedrasi o'qituvchisi, 1-darajali yurist |
| S. V. Korj      | Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi katta eksperti, 2-darajali adliya maslahatchisi   |

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining Idoralaro ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil “16” maydagi 2/24-sonli majlis qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.*

©X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti, 2024

## MUNDARIJA

|   |          |
|---|----------|
| <b>Kirish.....</b>  | <b>4</b> |
| <b>Glossariy.....</b>   | <b>6</b> |
| 1. Sud-xatshunoslik ekspertizasi tushunchasi va uni hal qilish masalalari.....  | 8        |
| 2. Sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun materiallarni tayyorlash va rasmiylashtirish.....  | 10       |
| 3. Sud-xatshunoslik ekspertizasini tayinlashda taqqoslash uchun materiallarni tayyorlash va rasmiylashtirish.....                             | 13       |
| 4. Sud-xatshunoslik ekspertizasining taqqoslash namunalari.....   | 16       |
| 5. Vakolatli organlar tomonidan sud-xatshunoslik ekspertizasiga taqdim etish uchun namunalar yig'ishdagi xorijiy davlatlarning tajribasi..... | 25       |
| 6. Taqqoslash uchun tavsiya etilgan namunalarning soni.....   | 29       |
| 7. Taqqoslash uchun tavsiya etilgan namunalarning soni bo'yicha jadval.....   | 30       |
| 8. Ilovalar.....  | 31       |
| 9. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....  | 34       |

## KIRISH

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovnii ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sud-ekspertlik faoliyati dolzarb sohaviy yo'nalishlardan biri bo'lib, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilinishida, fuqarolarning ishonchini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, Sud-xatshunoslik ekspertizasi kriminalistik ekspertizalarning eng ko'p tarqalgan hamda murakkab turlaridan biri bo'lib, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha obyektiv haqiqatni ochishga imkon beradi. Uning yordamida dastlabki tergov va sud organlari fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoyat ishlari bo'yicha ahamiyatli bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlaydilar.

Ushbu turdagi ekspertizalarni o'tkazishning qiyinligi odamning yozuv-harakat ko'nikmalari o'ta murakkab tashkiliy va ruhiy-fiziologik asosga egaligi, tadqiqotlarning bevosita obyektlari bo'lgan qo'lyozma matnni bajarish jarayoni esa birdaniga bir necha ichki va tashqi omillar ta'sirida kechishi bilan bog'liq. Sud-xatshunoslik sohasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlar doimo ekspert-xatshunos hal etadigan savollar qamrovini kengaytirishga imkon beradi.

Sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ashyoviy dalillarni kriminalistik jihatdan tadqiq etish tizimi muayyan xususiyatlarga ega. Bu bir tomondan, qo'lyozmada yozma harakat ko'nikmasi xususiyatlarining xilmalligi va ikkinchi tomondan, bu xususiyatlarning har xil yozuv sharoitlarida o'zgaruvchanligida ko'rindi.

Sud-xatshunoslik ekspertizasining predmeti ekspert tomonidan, faqat uning vakolatlariga tegishli faktlar (holat)ni aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu vakolatlar identifikatsion va noidentifikatsion turdagи savollar majmui bilan qat'iy ravishda chegaralangan bo'lib, ushbu savollar sud-xatshunoslik ekspertizasida mavjud mos holdagi ilmiy ishlab chiqilgan va tajribada sinalgan tadqiqot metodlarini qo'llash orqali aniq hal etiladi. Shuning uchun, ekspertiza tayinlash haqidagi surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sudning ajrimini olgandan so'ng, ekspert, birinchi navbatda o'z oldiga hal qilish uchun qo'yilgan savollar mohiyati bilan tanishishi, ularni o'z vakolatiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlashi talab etiladi. Bu bilan ekspert o'tkazilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarning vazifalarini va tadqiqot o'tkazishning predmeti va metodikasini aniqlab oladi.

Bugungi kunda sud ekspertizasini tayinlovchi vakolatli organ va shaxslarda sud-xatshunoslik ekspertizasi sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanish zaruriyati mavjud.

Sud-xatshunoslik ekspertizasi eng murakkab ekspertiza turlaridan biri hisoblanib, uning samaradorligi va ekspertiza muddatlari ko'p jihatdan ekspertga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va materiallarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi hamda sifatiga bog'liq.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, tergov, sud va boshqa vakolatli organlar tomonidan sud-xatshunoslik ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish uchun taqdim etilgan materiallarda ularni tayyorlash, olish tartibi, shuningdek, taqqoslash namunalarini rasmiylashtirish bilan bog'liq qoidalar buzilayotganligi aniqlanmoqda.

Mazkur uslubiy tavsiya bilan tanishish orqali tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyalar sud-xatshunoslik ekspertiza tadqiqotlari uchun shaxsning erkin, shartli-erkin va tajribaviy (eksperimental) namunalarining mazmun-mohiyati, ularni olish tartibi hamda to'g'ri va sifatli rasmiylashtirishga oid tavsiya hamda ma'lumotlarga ega bo'ladilar, shuningdek, ushbu qo'llanmadan advokatlar xizmat faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

## GLOSSARY

**Davlat sud-ekspertiza muassasasi** – sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan muassasa, shuningdek, tegishli davlat organlari, vazirliklar va idoralar tizimidagi ixtisoslashtirilgan sud ekspertizasi bo'linmalari;

**Davlat sud eksperti** – davlat sud-ekspertiza muassasasining o'z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o'tkazuvchi sud eksperti;

**Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti** – nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud ekspertizasini o'tkazishga ixtisoslashtirilgan, shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislari bo'lgan tashkilot;

**Sud eksperti** – xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs;

**Ish materiallari** – sud ekspertizasi tayinlangan fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar, shuningdek, advokatning so'rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzasidan to'plangan hujjatlar;

**Tekshirish obyektlari** – ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin. Tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi. Tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlar tekshirish uchun namunalardir;

**Sud ekspertizasi tadqiqoti** – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish holatlarini aniqlashga va sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berishga hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan hamda natijasi bo'yicha mutaxassis fikri taqdim etilishiga qaratilgan faoliyat;

**Namunalarning yetarli miqdori (soni)** – bu ularning, tekshirilayotgan matn, yozuv va imzodagi barcha mavjud belgilarni to'liq va har tomonlama solishtirish imkonini ta'minlaydigan darajadagi hajmi;

**Dastxat va imzoning erkin namunalari** – taxminiy ijrochi tomonidan ekspertiza tayinlangan ishga bog'liq bo'lman va bu ish tayinlangunicha, ijrochi o'zining dastxati yoki imzosi sud-xatshunoslik ekspertizasi tadqiqotlarida taqqoslash materiallari sifatida foydalanishini hatto taxmin qilmagan holatda bajarilgan qo'lyozma matn va imzolar;

**Shartli-erkin namunalar** – maxsus ekspertiza tadqiqotlari uchun emas, ko'rileyotgan ish vujudga kelganidan so'ng, ko'p hollarda esa aynan ko'rileyotgan ish bilan bog'liq holda (turli tushuntirish xatlari, arizalar, shikoyat va boshqa hujjatlar) bajarilgan qo'lyozma va imzolardir;

**Dastxat yoki imzoning tajribaviy (eksperimental) namunalar** – bu sudya yoki tergovchining taklifiga ko'ra, taxmin qilinayotgan ijrochi tomonidan ekspertiza uchun maxsus bajariladigan dastxat yoki imzolardir;

**Tajribaviy namunalar aytib turib yozdirilishi** – (tekshirilayotgan hujjatni ko'rsatish yoki undan ma'lumotlarni ko'chirib olish mumkin emas), tergovchi va sudya tomonidan taklif qilingan mavzuda yoki ixtiyoriy mavzularda erkin bayon qilinib yozilishi;

**Dastxat** – bu qo'lyozmada qayd etiladigan va har bir ijrochi (muallif) uchun xos bo'lgan va uning yozma harakat ko'nikmalariga asoslangan, qo'lyozma bajarilayotgan harakatlar va boshqa usullar tizimidir;

**Imzo** – bu qo'lyozma matnning yana bir turi bo'lib, shaxsini tasdiqlash maqsadlarida aniq bir odamning familiyasi, ismi va sharifini harflar yoki (va) shartli grafik belgilar yordamida ifodalaydi;

**Variatsiyaviylik** – shakllangan yozma harakat ko'nikmasining xususiyatidir. Variatsiyaviylikning tabiatini uning moslashuvchanlik funksiyasida yotadi. Dastxatdagi variatsiyaviylik shaxs (ijrochi, muallif) harakatlarining yozuv vazifalari va sharoitlariga moslashishi vositasi bo'lib hisoblanadi;

**Individuallik** – bu o'ziga xoslik, turli ijrochi(odam)larda qaytarmaslik. Individuallikning namoyon bo'lishi ijrochi(odam)da yozish ko'nikmasi shakllanish davridan paydo bo'ladi;

**Matn (qo'lyozma matn)** – qo'lyozmaning bir turi bo'lib, uning mazmuni harf, raqam yoki aralash (harfli-raqamlı) belgilar yordamida qayd etiladi va hajmi mos holda kamida to'rttadan kam bo'lman so'zlar, sakkizdan kam bo'lman raqamlar va uchtadan kam bo'lman so'z va raqamlardan iborat bo'ladi.

## 1. SUD-XATSHUNOSLIK EKSPERTIZASI TUSHUNCHASI VA UNI HAL QILISH MASALALARI

Turli jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida daliliy ashyo bo'lgan hujjatlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Jumladan, o'zgalar mulkini talon-taroj qilish, mansabdorlik jinoyatlari, firibgarlik, xo'jalik ishlarida moliyaviy hisob-kitob hujjatlari bilan birga boshqa turli yozma hujjatlar kriminalistik tekshiruv obyekti bo'lib o'tadi.

Ashyoviy dalil bo'lgan hujjatlarni tekshirishning asosiy vazifasidan biri qo'lyozma matnlarini kim tomonidan bajarilganligini aniqlashdan iboratdir. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, aynan ashayoviy dalillar ko'plab turdag'i jinoyat, huquqbuzarlik va nizolarning hal qilinishida eng asosiy rollardan birini o'ynaydi. Shu sababli, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi, sud sud-xatshunoslik ekspertizasining natijasiga katta ahamiyat qaratishadi. Biroq, sud-xatshunoslik ekspertizasi uchun obyekt yig'ish taraflar uchun juda ma'suliyatli ish hisoblanadi.

**Sud-xatshunoslik ekspertizasi** – bu fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha ahamiyatiga ega bo'lgan faktlarni (haqiqiy holatlarni) aniqlash maqsadida ekspertlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qo'lyozma hujjatlar yuzasidan maxsus bilimlar asosida o'tkaziladigan tadqiqot turidir.

Sud-xatshunoslik ekspertizasi – kriminalistik ekspertizalarning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri bo'lib, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha obyektiv haqiqatni ochishga imkon beradi. Uning yordamida dastlabki tergov va sud organlari fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha ahamiyatli bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlaydilar. Ushbu turdag'i ekspertizalarni o'tkazishning qiyinligi odamning yozuv-harakat ko'nikmalarini o'ta murakkab tashkiliy va ruhiy-fiziologik asosga egaligi, tadqiqotlarning bevosita obyektlari bo'lgan qo'lyozma matnni bajarish jarayoni esa birdaniga bir necha ichki va tashqi omillar ta'sirida kechishi bilan bog'liq. Sud-xatshunoslik sohasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlar doimo ekspert-xatshunos hal etadigan savollar qamrovini kengaytirishga imkon beradi.

Sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ashayoviy dalillarni kriminalistik jihatdan tadqiq etish tizimi muayyan xususiyatlarga ega. Bu bir tomonidan qo'lyozmada yozma harakat ko'nikmasi xususiyatlarining xilmassisligi va ikkinchi tomonidan bu xususiyatlarning har xil yozuv sharoitlarida o'zgaruvchanligida ko'rindi.

Jinoiy ishlarni dastlabki tergov va sudda ko'rish jarayonida ashyoviy dalil sifatida ish bo'yicha ko'pincha to'plangan hujjatlardagi yozuv va (yoki) imzolarni bajargan shaxsni yoki ayrim hollarda, muhim ahamiyatga ega bo'lgan, shu yozuv va imzolarni bajarish sharoitlarini aniqlash muammosi yuzaga keladi. Bu turdagи holatlar, ayniqsa, har xil pul-to'lov hujjatlarni qalbakilashtirish yo'li bilan jamoat va davlat mulkini talon-taroj qilgan shaxslar aybini isbot qilishda alohida ahamiyatga ega.

Fuqarolik da'vo hujjatlarining (masalan, tilxat, vasiyatnama va boshqalar) haqiqiyligini aniqlash bilan bog'liq hollarda ham suxatshunoslik ekspertizasining ahamiyati kattadir.

Sud-xatshunos ekspert tadqiqot jarayonida quyidagi savollarga javob berishi mumkin:

- shubhali qo'lyozmani tekshirilayotgan shaxslarning qaysi biri bajarganligi;
- shubhali qo'lyozmani bir shaxs bajarganmi yoki turli shaxslarmi;
- qo'lyozma ataylab o'zgartirilgan yozuv bilan bajarilganmi;
- shubhali qo'lyozma biror-bir shaxsning yozuviga o'xshatib bajarilganmi;
- qo'lyozma odatdagi yoki g'ayriodatiy holatda bajarilgan.;
- qo'lyozma jismoniy toliqqan, ruhiy hayajon, og'ir kasallik yoki alkogol iste'mol qilgan holatda bajarilganmi.

Bundan tashqari, ekspert oldiga boshqa savollar ham qo'yilishi mumkin.

Hujjatning ijrochisi aniqlash bilan bog'liq savollarni hal etish uchun gumon qilinayotgan shaxslarning yozuv namunalarini tanlash kerak.

## 2. SUD-XATSHUNOSLIK EKSPERTIZASINI O'TKAZISH UCHUN MATERIALLARNI TAYYORLASH VA RASMIYLASHTIRISH

Bugungi kunda, ishlarni dastlabki tergov va sudda ko'rish jarayonida ashyoviy dalil sifatida ish bo'yicha ko'pincha to'plangan hujjatlardagi qo'lyozma matn, yozuv va imzolarni bajargan shaxsni yoki ayrim hollarda, muhim ahamiyatga ega bo'lgan, shu yozuv va imzolarni bajarish sharoitlarini aniqlash muammosi yuzaga keladi.

**Sud-xatshunoslik ekspertizasini** tayinlashda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyalar, avvalo, bevosita tadqiqot obyektini aniqlab olishi lozim.

### **Bular jumlasiga**

- qo'lyozma matn;
- qo'lyozma yozuv;
- raqamlı yozuv (*raqam son*);
- va imzolar kiradi.

Ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da tadqiqot obyektini individuallashtirish (aniq) hujjat rekvizitlari (**nomi, ijro raqami va sanasi**)ni umumiy jihatdan sinab o'tish bilan ta'minlanadi.



**BUNI BILISH MUHIM !**

Agar qo'lyozma matn ekspertizasi tegishli rekvizitlarga ega bo'lмаган hujjatga nisbatan tayinlanayotgan bo'lsa, tekshirilayotgan matnning **boshlang'ich va tugash so'zлari, satrlar soni, varaqlari** va h.k.lari ko'rsatilishi kerak.

Shu bilan birga, qisqa hajmdagi qo'lyozma yozuv, raqamlı yozuv, matn lavhasining qo'shib yozish holati tadqiqotlarida tekshirilayotgan obyektning to'liq yozilishi va asosiy matndagi joylashgan joyi ekspertiza savollarida aniq ko'rsatib o'tiladi.

Agar imzoning ekspertizasi o'tkaziladigan bo'lsa, ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da ushbu imzo kimning nomidan bajarilgan bo'lsa, o'sha shaxsning **familiyasi, ismi va tekshirilayotgan imzoning hujjatdagi aniq joylashgan joyi** (satr, grafa, undan oldingi so'z va h.k.) ko'rsatilishi lozim.

Shuningdek, ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da ekspertiza predmetiga tegishli va oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotlar (**tekshirilayotgan hujjatning yoki namunalarning bajarilish sharoitlari, tekshirilayotgan matn (imzo) ijrochisining, ularni bajarish vaqtidagi yoshi yoki holati va h.k.**) ko'rsatilishi kerak; ekspertizaga taqdim etilayotgan materiallarning ro'yxati (tadqiqot obyektlari, taqqoslash materiallari va h.k.) berilishi lozim.

Shu bilan birga, aniq shaxslar nomidan bajarilgan imzolarning tadqiqotlari uslubiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri birinchi bosqichda imzoning haqiqiyligi haqidagi masalaning hal etilishidir.



Shu bois, tadqiqot obyekti bo'lib, aniq shaxs nomidan bajarilgan imzo bo'lsa, biroq tergov (sud) organlarini bu imzoni boshqa shaxs tomonidan bajarilganligi qiziqtirsa, ekspert oldiga qo'yiladigan savolni shakllantirishda tekshirilayotgan imzo nomidan bajarilgan shaxs ham, shuningdek, bu imzoni bajarishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar ham ko'rsatilishi kerak.

**Misol:** 2023-yil 12-martdagi uy-joy hadya shartnomasi "Imzolar" satrdagi "Yunusov Vali Farxodovich" yozuvlardan keyin V. F. Yunusov nomidan bajarilgan imzo, – Vali Farxodovich Yunusov o'zi tomonidan bajarilganmi yoki Nilufar Saidovna Yunusova tomonidan bajarilganmi?

Tekshirilayotgan imzoni o'ylab topilgan shaxs yoki noma'lum shaxs nomidan bajarilganligi holati ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da yoki bevosita, taxminiy ijrochiga nisbatan qo'yilayotgan savolni shakllantirishda aks ettiriladi.

**BUNI BILISH  
MUHIM !**

Bundan tashqari, materiallarni ekspertizaga yuborish chog'ida, ekspertiza tayinlagan organ qaror (ajrim)da taxmin qilinayotgan ijrochi to'g'risida va tadqiqot o'tkazish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar haqida xabar qilishi lozim. Bular taxmin qilinayotgan ijrochining tug'ilgan yili, jismoniy kamchiliklari (**masalan, ko'z ojizligi**), harakat funksiyasiga ta'sir etuvchi boshidan kechirgan kasalliklari (**masalan, qo'l, miya jarohati**), millati, ma'lumoti, kasbi, boshqa tillarni bilishi va h.k., tekshiriladigan obyektning yozilish sharoitlari ma'lum bo'lsa – shu sharoitlar va boshqalardan iborat.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar solishtirma materiallarning hajmi va sifatini aniqlashda, ekspert odiga qo'yilgan savollarni hal etishda katta ahamiyatga egadir.

**Protsessual qonunchilikka binoan,** sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun qonuniy asos bo'lib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o'tkazish asos bo'lib



xizmat qiladi. Sud ekspertizasi tegishli qaror yoki ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran tayinlangan hisoblanadi. Qaror (ajrim) bilan birga ekspertga tadqiqot o'tkazib, xulosa berish uchun zarur bo'lgan materiallar, jumladan, tadqiqot qilinadigan hujjat va yozuv (imzoni) bajarishda guman etilayotgan shaxslarning dastxat yoki imzo namunalari yuboriladi.

Dastxat yoki imzoni tadqiqot qilish uchun ekspertizaga hujjatning asl nusxasini taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Hujjatning nusxalovchi qog'oz orqali bajarilgan **nusxasi, kseronusxasi, faksnusxasi yoki fotonusxasi bo'yicha dastxat** (imzo)ning dinamik, bosim, harakatlarni bog'lanish va diagnostik belgilarni aniqlashning imkonini cheklangan. Shu sababli, ekspertizaga tadqiqot qilinishi lozim bo'lgan hujjatning nusxasini yuborish to'liq tadqiqot o'tkazishga to'sqinlik qiladi va ayrim hollarda qat'iy xulosa berish imkonini bermaydi.

**Hujjatning nusxasi orqali dastxat (imzo)ni tadqiqot qilish faqat istisno hollarda: hujjatning asl nusxasi yo'qotilgan yoki yozuvlar odatdan tashqari material (uy devori, murdaning tanasi)ga yozilgan taqdirdagina ruxsat etiladi. Tadqiqot qilinuvchi hujjatning aslini topish imkonи bo'limgan holda bu haqida ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimda ko'rsatib o'tilishi lozim.**

### 3. SUD-XATSHUNOSLIK EKSPERTIZASINI TAYINLASHDA TAQQOSLASH UCHUN MATERIALLARNI TAYYORLASH VA RASMIYLASHTIRISH

Ekspertizaga taqdim qilinadigan taqqoslash materiallari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ishonchliligi;
- yetarlicha sifati;
- yetarli miqdori (soni).

**Namunalarning ishonchliligi** – bu ekspertizaga taqdim etilgan shaxsning dastxat va imzo namunalari aynan o'sha shaxsga tegishligini va ular shubha tug'dirmasligini anglatadi.

Agar sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun tekshirilayotgan shaxs dastxati (imzo)ning tegishli namunalari taqdim etilmasa, savolga ijobiy javob berish uchun ekspertning ko'p yillik tajribasi va yuqori malakasi, yangi takomil metodni qo'llashi ham yordam bera olmaydi. Namunalarni olishda yo'l qo'yilgan xatolar esa, o'z navbatida, ekspertning ham xato qilishiga sabab bo'ladi va natijada tergov yoki sud organlarini noto'g'ri yo'lga tushirib qo'yishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldaggi 73-sonli qarori bilan tasdiqlangan "**Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida**"gi namunaviy Nizomining 14-bandiga asosan, "**Sud ekspertiga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari, taqqoslovchi ish materiallari, ma'lumotlarning ishonchliligi uchun ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)**", advokat va tadqiqot o'tkazish uchun murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs javob berishi" belgilangan.

Taqqoslash materiallaridan namunalar olishda rioya etilishi lozim bo'lgan talablardan biri bu ularning yetarlicha sifati va miqdoriga tegishlidir. Albatta, bu holda, tadqiqot obyektining o'zi ham tadqiqot uchun yaroqli bo'lishi kerak.

**Namunalarning yetarlicha sifati** deganda, ularning tekshirilayotgan obyektlar bilan tayyorlash vaqtini, yozish tezligini, hujjatning turi, tili, yozish materiali, bajarish usuli va agar imkonni bo'lsa, mazmuni hamda bajarish sharoitlariga ko'ra solishtirish imkoniyatining mavjudligi tushuniladi.

**Namunalarning yetarli miqdor (son)i** – bu ularning tekshirilayotgan matn, yozuv va imzodagi barcha mavjud belgilarni to'liq va har tomonlama solishtirish imkonini ta'minlaydigan darajadagi hajmi.

**BUNI BILISH  
MUHIM !**

Tekshiriladigan obyektlarni muayyan shaxs tomonidan bajarilganini aniqlash bilan bog'liq identifikatsion hamda ayrim diagnostik masalalarni muvaffaqiyatli echish uchun etarli hajmda sifatli solishtiruv materiallari zarur.

Solishtiruv materiallarining soni etarli bo'lishi muayyan shaxs dastxatining o'zgaruvchanligini, unga xos dastxat belgilarning individual yig'indisini to'liq ifodalashga imkon yaratadi.

Dastxat (imzo) namunalarining son (miqdor)i bo'yicha masala muhim ahamiyatga ega, chunki talablarga mos holda olingan namunalar agar tadqiqotlar o'tkazish uchun yetarli bo'lmasa, ekspertga dastxat belgilarning turg'unligi va barqarorligini aniqlashga imkon bermaydi.

Solishtiruv namunalarining yetishmasligi ekspertlarning qo'shimcha namunalar taqdim etish haqida tergovchi (sud)ga iltimosnomalar yuborishiga, oqibatda ekspertiza harakatdan to'xtatilishiga, ayrim hollarda esa “aniqlash imqoniyatning yo'qligi” shaqlida xulosa berishga asosiy sabab bo'ladi.

*Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 185-moddasi asosan “Agar ekspert qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materialarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni ekspertizani tayinlagan organga (shaxsga yuboradi”.*

**Sud-xatshunoslik ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim)da taqqoslash materiallari haqida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:**


#### NAMUNALAR TURI:

- erkin, shartli-erkin yoki tajribaviy (eksperimental);
- dastxat yoki imzo namunalari.

#### NAMUNALARI OLINGAN SHAXS HAQIDA MA'LUMOT:

- qaror (ajrim)da namunalari olingan shaxsnинг familiya, ismi va otasining ismini ko'rsatilishi;
- shaxsnинг erkin **dastxat** va (yoki) imzo namunalari aniq hujjatlarda joylashishi (**hujjatlarning nomi, raqami, sanasi, satr, undan oldingi so'z va h.k.**);
- shaxsnинг shartli-erkin **dastxat** va (yoki) imzo namunalarining aniq joylashuvi (“**ish varaqasi**” “№(T/r)...” va **boshqalar**);
- shaxsdan olingan tajribaviy (eksperimental) **dastxat** va (yoki) imzo namunalarining varaqlar soni.

Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi** bilan ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tartibi beliglangan. Jumladan: 189-modda “Namuna olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar va organlar”, 190-modda “Namuna olinishi mumkin bo'lgan shaxslar”, 191-modda “Namuna olish to'g'risidagi qaror yoki ajrim” va 193-modda “Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan namunalar olish tartibi”.



**Muhim!** Qayta sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun birlamchi (oldingi) ekspertizaga taqdim etilgan namunalar taqdim etilishi lozim.

Tadqiqot obyekti va namuna hisoblangan imzoni chizish yoki qalam bilan yozish orqali ekspertga to'g'ridan to'g'ri tadqiqot obyektiga ishora qilish, ularning yonida tushuntirish yozuvlari va yozuvlarni yozish yoki ularni hujjatlardan kesib, alohida qog'oz varaqlariga yopishtirish, hujjatda o'rganilayotgan imzo va yozuv joylashgan joyini buklash mumkin emas.

#### 4. SUD-XATSHUNOSLIK EKSPERTIZASINING TAQQOSLASH NAMUNALARI

Sud-xatshunoslik ekspertizalarini o'tkazishda taqqoslash uchun namunalar quyidagi uch turga bo'linadi:

erkin

shartli erkin

tajribaviy  
(eksperimental)

**Erkin dastxat va imzo namunalari** deganda, taxminiy ijrochi tomonidan ekspertiza tayinlangan ishga bog'liq bo'lмаган va bu ish tayinlangunicha, ijrochi o'zining dastxati yoki imzosi sud-xatshunoslik ekspertizasi tadqiqotlarida taqqoslash materiallari sifatida foydalanishini hatto taxmin qilmagan holatda bajarilgan qo'lyozma matn va imzolar tushuniladi. Bunday namunalar odatda, odatiy yozuv bilan o'zgartirmasdan bajariladi.

Erkin namunalar bo'lib, xizmatga doir yozishmalarga tegishli matn va imzolar, tarjimai hol, o'z qo'li bilan to'ldirilgan so'rovnama, ariza, shaxsiy xat, konspekt, shartnoma, nafaqa yig'ma jildi, ish joyidagi shaxsiy yig'ma jild, to'lov vedomost, kassa orderi va boshqa hujatlardagi imzolar tushunilishi mumkin.



Rasm-1. erkin imzo namunalari.

Muayyan shaxs erkin dastxat va imzosining namunalarini, uning yashash joyi, ish joyi va boshqa muassasalardan, qarindoshlari, tanish bilishlari va h.k.dan topish va olish mumkin bo'ladi.

Erkin dastxat (imzo)ning namunalarini tanlab olinayotganda ularning aslligini, ya'ni haqiqatan ham mazkur namunalarni shu shaxs bajarganini sinchiklab tekshirish va tegishli bayonnomaga tuzish orqali rasmiylashtirish lozim.

Erkin namunalarni tanlab olish vaqtida xatoga yo'l qo'yilsa, ekspertning noto'g'ri xulosa berishiga olib kelishi mumkin, shu sababli, ularning aslligini tekshirish zarur. Bu maqsadda, erkin namunalar uning nomidan taqdim etilayotgan shaxsga ko'rsatilib, shu shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Masalan, namunalarni olib qo'yish bayonnomasi yoki hujjatning yozuvi yo'q joyiga "Matn (imzo)ni men bajarganman" deb yozilib, imzo chekiladi. Bir necha yozuv (imzo)li hujjatlar (yon daftarcha, to'lov qaydnomalari va h.k.) dastxat (imzo)ning erkin namunalarini sifatida taqdim qilinayotgan hollarda har bir yozuv (imzo)ning aslligini tekshirish zarur.

Namunalarni shaxsning o'zidan, ayrim sabablarga ko'ra (shaxsning o'limi, turar joyi noma'lumligi tufayli), tasdiqlash imkoniyati bo'lmasa, namunalar shu shaxsga mansubligini aniqlash uchun oila a'zolariga, xizmat joyiga murojaat etish lozim. Ushbu holat ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda qayd etiladi.

**Sud-tergov organlarining amaliyotida namunalarning ishonchliligi tekshirilmay qoladigan holatlar ham uchrab turadi, natijada ekspertizaga butunlay boshqa shaxslar tomonidan bajarilgan va namuna maqomiga ega bo'limgan matnlar (imzolar) taqdim etiladi.**



**Shaxsning erkin dastxat (imzo) namunalarini tekshirilayotgan hujjatlari quyidagi shartlarga mos kelishi kerak:**

**Yozuvi va tili.** Har bir tilida yozuvlar o'zining alifbosi asosida bajariladi. Masalan, lotin va kirill yozuvlar har xil harflar bilan bajariladi. Ularning dastxat belgilari turli ahamiyatga ega va ko'p hollarda ularni taqqoslash uchun qo'llab bo'lmaydi. O'z o'rnida bir xil yozuvli, lekin har xil tildagi matnlarda yozuv nutqi belgilari haqida mulohaza qilish ham qiyin. Shunga ko'ra, tekshirilayotgan hujjatning matni o'zbek tilida kirill grafika yordamida bajarilgan bo'lsa, kirill grafika asosida o'zbek tilidagi namunalar taqdim etilishi kerak. Aks holda, sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish va xulosa berish ancha qiyinlashadi yoki umuman imkoniyati bo'lmaydi.


**Bajarilish vaqtি.** Dastxat faqat nisbiy turg'unlik xususiyatiga ega va uning belgilari vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ayniqsa o'quvchi va qariyalarning dastxatlarida vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgarishlar paydo bo'lishi mumkin. Og'ir kasallik, ko'z ojizligi, yozishga moslashgan qo'lning jarohati natijasida ham bunday o'zgarishlar yuz beradi. Shu sababli, tadqiqot qilinadigan dastxat (imzo) bilan namunalar o'rtasidagi bajarilish vaqtি mos kelishi katta ahamiyatga ega.

Taxminan bir vaqtda bajarilgan tadqiqot qilinadigan hujjatlar bilan dastxat (imzo) namunalarini topish imkoniyati bo'limgan taqdirda, ekspertga namunalari taqdim qilinayotgan shaxsning yoshi, ma'lumoti, mutaxassisligi, dastxatga ta'sir etadigan kasalliklari to'g'risidagi axborot berilishi lozim. Ular ekspertga aniqlangan belgilarni baholashga yordam beradi.



**Tashqi ko'rinishi (blank shakli), tuzish maqsadi va mazmuni.** Hujjatning bu xususiyatlari qo'llanadigan dastxat turiga ta'sir etadi. Odatda, rasmiy hujjat yozilganda aniq, chiroqli qilib bajarishga harakat qilinadi, katta ahamiyatga ega bo'limgan qo'lyozmalar esa ko'pincha shosha-pisha, harflari ajratilmasdan, soddalashtirib bajariladi. Namunani tekshirilayotgan hujjatga mos blankada taqdim etish ekspertga qo'lyozma (imzo)ni joylashtirish belgilarini aniqlashga imkon beradi. Namunalarning mazmuni tekshiriladigan hujjatga mosligi katta ahamiyatga ega. Ushbu talabga rioya etmaslik solishtiruv tadqiqotini o'tkazishga imkon bermaydi. Shunga ko'ra, agar ekspertizaga kassa orderi yuborilsa, xuddi shunday orderlardagi mazmunan o'xshash qo'lyozmalarni namuna sifatida taqdim etish maqsadga muvofikdir.

**Yozuv materiali va quroli.** Namunalar va tadqiqot qilinuvchi hujjat bir xil qog'ozda va yozuv quroli (qalam, ruchka)da ijro etilgan bo'lishi muhim. Chunki, bu omillarning dastxat (imzo) belgilariga ta'siri katta.



## Bajarilish usuli. Agar

tekshirilayotgan matn maxsus shrift (bosmacha, chizmachilik va h.k.)ga taqlid qilib bajarilgan bo'lsa, yoxud yozishga moslashmagan chap qo'l bilan ijro etilgan deb taxmin qilingan taqdirda, xuddi shu usulda bajarilgan erkin namunalarni topish lozim.

**Tadqiqot qilinadigan hujjatning bajarilish sharoiti.** Tekshirilayotgan hujjat qandaydir sharoitda (masalan, turib yoki harakatdagi transportda) bajarilgan bo'lsa, xuddi shunday sharoitda bajarilgan namunalarni topish va ekspertga taqdim qilish ekspertizani samarali o'tkazishga yordam beradi.

**Yozayotgan shaxsning holati.** Tekshirilayotgan hujjat odatdan tashqari (masalan, hayajon, qattiq charchagan) holatda bajarilgan taqdirda, iloji boricha aynan shu sharoitda bajarilgan namunalarni topish kerak.

**Yozuv tezligi.** Yozuv tezligini o'zgartirish shaxsning dastxat belgilariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gohida yozuv tezligi keskin o'zgartirilganda yozayotgan shaxs dastxatning yangi variantiga o'tadi. Tergovchi (sud) uchun tekshirilayotgan hujjatdagi yozuv tezligini aniqlash murakkabdir.

**Shu tufayli, ekspertga erkin namunalar sifatida har xil tezlikda bajarilgan qo'lyozmalarni taqdim qilish lozim. Ma'ruza konseptlari, shoshib bajarilgan yozuvlar yuqori tezlikda bajarilgan dastxatning erkin namunalar sifatida rasmiy hujjatlar: ariza, tarjimai hol va h.k. esa nisbatan past tezlikda bajarilgan dastxatning erkin namunasi sifatida taqdim qilinishi mumkin.**

Barcha qayd etilgan talablarga binoan, erkin namunalarni yig'ish imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunday holda mavjud kamchiliklar tajribaviy namunalar hisobiga qoplanadi. Shu o'rinda, ayrim sharoitlarda (masalan, boshqa bir kimsaning imzosiga o'xshatib qo'yilgan imzo ijrochisini aniqlashda) tajribaviy namunalarning ahamiyati kattaroq ekanligini aytib o'tish joiz.


**Shartli-erkin namunalar** bu - maxsus ekspertiza tadqiqotlari uchun emas, ko'rيلayotgan ish vujudga kelganidan so'ng, ko'p hollarda esa aynan ko'rيلayotgan ish bilan bog'liq holda (turli tushuntirish xatlari, ariza, shikoyat va boshqa hujjatlar) bajarilgan qo'lyozma va imzolardir.

**BUNI BILISH MUHIM !**

Ularni bajargan shaxs o'zining dastxatini ataylab o'zgartirishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli, bunday namunalar erkin namunalar o'rnni bosa olmaydi.

Bunday namunalar ularning alohida bir turi hisoblanadi, chunki ular erkin va tajribaviy (eksperimental) namunalar sirasiga kiritilmaydi.

Shartli erkin namunalar muayyan shaxsga tegishli hujatlarda (tushuntirish xati, so'roq bayonnomasi va boshqalar) sababli ularni tasdiqlash zarur emas.



Rasm-2. Shartli-erkin namuna.

**Dastxat yoki imzoning tajribaviy (eksperimental) namunalari**  
bu – sudya yoki tergovchining taklifiga ko'ra, taxmin qilinayotgan ijrochi tomonidan ekspertiza uchun maxsus bajariladigan dastxat yoki imzolardir.

Dastxatning (imzo) barcha tajribaviy (eksperimental) namunalari, ularning haqiqiyligiga shubha tug'ilmasligi uchun, albatta, sudya yoki tergovchining ishtirokida bajarilishi lozim. Ularning aslligi shubha uyg'otmasligi uchun bu namunalar tergovchi



(sudya) tomonidan xolislar ishtirokida olinishi shart (JPKnинг 193-моддаси). Namuna olish to'g'risida tegishli qaror (ajrim) chiqarilib, namunalar bayonnomma tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

Tajribaviy namunalarning ijobiy tomoni shundaki, ular maksimal ravishda tekshirilayotgan hujjat bajarilgan sharoitga yaqinlashtirib olinishi mumkin (masalan, har xil tezlik va yorug'likda, chap qo'lida va b.). Namunalarning zarur hajmi, sifati, mazmuni ta'minlanadi, ularni bajarish jarayonini kuzatish qo'shimcha (masalan, namuna berayotgan shaxs ataylab sekin yozayotgani haqida) ma'lumot beradi. Nihoyat, tajribaviy namunalarni mutaxassis ishtirokida olish imkoniyati solishtiruv materiallarining sifatini oshiradi.

Ijrochiga tajribaviy namunalar olinayotgan vaqtida odat bo'lgan yozish

sharoitini yaratib berish lozim (normal sharoit - stol oldida o'tirgan holda, odatdagи yozuv quroli, ko'zoynak ishlatish va h.k.).

Tajribaviy namunalar olishning ikkita asosiy usuli mavjud: aytib turib yozdirish va tergovchi (sudya)ning taklifi bo'yicha shaxs qo'lyozma

va imzolarni **mustaqil ravishda** bajarishi.

Tajribaviy namunalar **aytib turib yozdirilishi** (tekshirilayotgan hujjatni ko'rsatish yoki undan ma'lumotlarni ko'chirib olish mumkin emas), tergovchi va sudya tomonidan taklif qilingan mavzuda yoki ixtiyoriy mavzularda erkin bayon qilinib yozilishi mumkin. Aytib turib yozdirish tergovchi, sudya ekspert tomonidan belgilangan (aniqlangan) tezlikda amalga oshiriladi; kerakli so'zlar bu holda qanday aytilsa, shu tarzda o'qiladi, tinish belgilari tovush bilan ajratilmaydi.

**Agar ko'rيلayotgan ishning mohiyati imkon bersa, tekshirilayotgan hujjatning mazmuni 5-10 marta aytib turib yozdiriladi, tekshirilayotgan matnning hajmi juda ko'p bo'lsa, hujjatning, matn boshlanishi, o'rtasi va tugagan qismidan alohida lavhalar tanlab olinadi.**

Dastxat namunalari bir necha marta – kamida **uch marta** olinadi. Matnni aytib turish vaqt bo'yicha tanaffus bilan amalga oshiriladi. Bu holat muayyan shaxsning dastxatidagi mavjud belgilar variantlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Tergovchi yoki sudning topshirig'i bilan namunalar **mustaqil yoziladigan** bo'lsa, u holda tekshirilayotgan hujjat matnini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishga yoki tekshiriladigan yozuv imzoning ko'rinishini chizib olishga imkoniyat berish kerak emas.

**BUNI BILISH  
MUHIM !**

Tajribaviy namunalar alohida-alohida varaqlarda bajarilib, har varaq to'ldirilishi bilan yozayotgan shaxsdan olib qo'yilishi lozim. Bajarilgan matn kelgusida namuna sifatida xizmat qilmasligi uchun tekshirilayotgan shaxs oldidan olib qo'yish lozim.

Tajribaviy namunalar, xuddi erkin namunalar kabi tekshirilayotgan hujjatning yozuvlar bilan yozish tili, mazmuni, yozish materiallari, bajarish usuli, agar iloji bo'lsa, hujjatning bajarish (bajarilishi) sharoitlari, jumladan yozish tezligi (tempi)ga ko'ra o'zaro solishtiriladigan bo'lishi kerak. Biroq eksperimental namunalarni olishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Tekshirilayotgan matn yoki imzo birorta maxsus tipografik blankaning muayyan ustunida joylashgan bo'lsa, eksperimental namunalarni olishda namunlarni yuqorida qayd etilgan tartibda olish lozim.

Raqamli yozuvlarni taqqoslash tadqiqotlari uchun zarur eksperimental namunalarni olishda, tekshirilayotganga o'xhash raqamli yozuv mavjud bo'lgan matnni **5-10 marta aytib turib yozdirish** talab etiladi. Tekshirilayotgan raqamli yozuv alohida varaqlarda **kamida 10 marotaba** bajarilishi lozim.

Shuningdek, agar o'rg anilayotgan matnning bajarilishi mast holatda imzolar bajarilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lsa namunalar odatdagи sharoitda bajarilganlar bilan bir qatorda (**o'rganilayotgan matn va imzo shaklida**) 5-6 varaqda juda tez sur'atda va eng noqulay holatda (**tik turgan holda yoki ehtimol vertikal yuzada**) tanlanishi kerak.

Tadqiqot obyektlari g'ayriodatiy sharoitlarda, masalan g'ayrioddiiy holatda (**vertikal sirdagi yozuv, turib yozish va h.k.**), g'ayrioddiiy yozish materialida (**gazlama, faner va h.k.**), g'ayrioddiiy yozish qurollari bilan (**gugurt donasi, mix va h.k.**), qo'lyozmaning g'ayrioddiiy tezligi (tempi)da (**ijrochiga xos bo'lgan yozish tezligi (tempi)ga nisbatan sekinroq yoki tezroq bajarilgan**) bajarilgan holatlarda, taxminiy ijrochiga tajribaviy namunalarni yuqorida ta'kidlangan sharoitlarda bajarishni taklif qilish lozim.

**BUNI BILISH MUHIM !**

### **Shaxsdan tajribaviy imzo namunalarini olishda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olish lozim:**

- tekshirilayotgan imzo nomidan bajarilgan shaxsnинг tajribaviy namunalarini olishda, bu shaxsga o'z imzosini barcha ma'lum bo'lgan variantlarda, alohida varaqlarda bajarish taklif qilinadi. Barcha imzolarni ketma-ket bir varaqda bajarilishi tekshirilayotgan shaxs imzosining variantlarini to'sqiniksiz aniqlashga imkon beradi;

- tekshirilayotgan imzolar taqqoslanayotganda o'sha shaxs nomidan bajarilgan imzolar bilangina emas, boshqa taxminiy ijrochilaring dastxatlari bilan ham o'tkazish talab etilgan holatlarda tajribaviy namunalarni olishda, taxminiy ijrochiga, imzo nomidan bajarilgan shaxsning familiyasini yozish taklif qilinishi kerak. Undan tashqari, o'sha shaxsning familiyasi bir necha marta takrorlanadigan maxsus matn ham oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim;

- agar o'ylab topilgan shaxslar nomidan bajarilgan imzolar tekshirilayotgan bo'lsa, taxminiy ijrochi imzolarining tajribaviy namunalarini olishda, unga o'ylab topilgan shaxslarning familiyalarini alohida varaqlarda bajarishni taklif qilish hamda o'ylab topilgan shaxslarning familiyalari bir necha marta takrorlanadigan maxsus matnni aytib turib yozdirish lozim;

- aytib turgan holda yozdirish yakunlanganidan so'ng biroz vaqt o'tgach, dastxatining tajribaviy namunalari olinayotgan shaxsga, boshqa bir matnni (bunday matn tushuntirish xati, ariza va shu kabi qo'lyozma mantlari bo'lishi mumkin) mustaqil tarzda, aytib turishlarsiz taklif qilinishi lozim;



- Tekshirilayotgan imzolar o'ylab topilgan shaxslar nomidan bajarilganligi, chap qo'lda bajarilganligi yoki birorta shriftga taqlid qilib bajarilganligi taxmin qilinganda, eksperimental namunalarni yuqorida ta'kidlangan qoidalar asosida, chap qo'lda yoki birorta shriftga taqlid qilgan holda olinishi lozim;

- Tajribaviy namunalari olinayotgan taxminiy ijrochi tekshirilayotgan yozuv yoki imzoni haqiqatan ham o'zi bajarganini tan olsa, unga tekshirilayotgan obyektni qanday bajargan bo'lsa, namunalarni ham shunday bajarish taklif qilinadi. Biroq shunda ham bu shaxsga tekshirilayotgan hujjatlarni ko'rsatmaslik lozim.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Fuqarolik kodekslari shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan yoki unga jismoniy azob berish bilan bog'liq holda, dastxat (imzo)ning eksperimental yoki boshqa har qanday namunalarini olishni ta'qiqlaydi. Masalan, tekshirilayotgan matn ijrochining alkogol mastlik holatida yoki qo'rqlik holatida bajarganligi ma'lum bo'lsa, albatta, eksperimental namunalar olish uchun yuqoridagi kabi holatlarni modellashtirish (qayta tiklash, takrorlash) mumkin emas.

Bunday holatlarda, mazkur shaxsning dastxatiga g'ayriodatiy sharoitlar qay tarzda ta'sir qilishini (o'zgargan va o'zgarmasdan qolgan belgilarning xususiyati va hajmi qanday) aniqlash maqsadida, bu shaxsning, mumkin bo'lgan boshqa holatlarda, masalan, g'ayriodatiy tempda, g'ayriodatiy yozish qurollaridan foydalangan holatlarda eksperimental dastxat namunalarini olish tavsiya qilinadi. Biroq, yozishning mumkin bo'lgan sharoitlarida, masalan, harflarning o'lchami va og'ishini o'zgartirib ham tajribaviy namunalarni olish, dastxat yoki imzosining eksperimental namunalari olinayotgan shaxsning roziligi bilangina amalga oshiriladi.

Olingen barcha tajribaviy namunalar tergovchi yoki sudya tomonidan, ularni olinish vaqtin, bajarish tezligi (tempi), ijrochining holati (masalan, stol ortida o'tirib, qog'ozni vertikal joylashgan sirtiga qo'yib) va qog'oz varag'inining joylashishi (stol sirtiga nisbatan) ko'rsatilib tasdiqlanishi kerak bo'ladi.

Tajribaviy namunalar olingenligi haqida bayonnomha tuziladi va boshqa kerakli ish materiallari bilan birga ekspertga taqdim qilinadi.

Shuningdek, namunalarni tanlashda ularni ikki xil bo'lishiga ahamiyat berish kerak. Namunalar matnli ([harfli, raqamli yoki aralash](#)) va imzoli bo'lishi mumkin.

Matn tekshiriladigan bo'lsa taxmin qilinayotgan ijrochini dastxatining namunalari ham matn ko'rinishida bo'lishi zarur. Bunda ekspertizaga taqdim etilayotgan namunalar mazmuni bo'yicha har xil bo'lishi kerak. Sababi, bir xil mazmundagi namunalarda dastxatning hamma ko'rinishlari namoyon bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun, iloji boricha dastxatning erkin, shartli-erkin va tajribaviy namunalarini sinchiklab, yuqoridagi talablarga rioya qilgan holda olish lozim.

**MUHIM! EKSPERTIZAGA TAQDIM QILINAYOTGAN BARCHA NAMUNALAR EKSPERTIZA TAYINLAGAN SHAXS TOMONIDAN TASDIQLANISHI LOZIM, MASALAN: "FUQARO I. N. RUSTAMOV DASTXATINING (IMZOSINING) ERKIN (EKSPEIMENTAL) NAMUNASI". "TERGOVCHI, SUDYA (IMZO)". BUNDAY TASDIQLOVCHI YOZUVLAR HUJJATNING MATNDAN HOLI JOYLARIDA YOZILISHI KERAK.**

## **5. VAKOLATLI ORGANLAR TOMONIDAN SUD-XATSHUNOSLIK EKSPERTIZASIGA TAQDIM ETISH UCHUN NAMUNALAR YIG'ISH VA TADQIQOT O'TKAZISH XUSUSIYATLARI BO'YICHA XORIJJIY DAVLATLAR TAJRIBASI**

Mamlakatimizda sud-tergov organlar tomonidan eng ko'p tayinlanayotgan ekspertiza turlaridan biri bu **sud-xatshunoslik ekspertizasi** hisoblanadi.

Ushbu sohada faoliyat yurituvchi ekspertlar tomonidan **sudga qoniqarli xulosa taqdim qilinishi uchun** ish boshida uni imkoniy boricha ko'proq hamda **maqbul namunalar** bilan ta'minlash lozim.

Chunki, aynan **namunalar** ekspert tomonidan nizodagi qo'lyozmaning **haqiqiyligi to'g'risida** yoxud **uning muallifi kimligi to'g'risida** xulosa hosil qilish uchun asosiy ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, sud-tergov organlari sud-xatshunoslik ekspertizasi tayinlashda ekspertni tegishli namunalar bilan ta'minlash choralarini ko'rishlari zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xatning identifikatsiyasi ma'lum bo'lgan **yozuvning sifatiga** bog'liq. **Shubhali** yoki **bahsli yozuvlarni** tekshirishning dastlabki bosqichi ham yetarli haqiqiy yozuv namunalarini yig'ish hisoblanadi. Bunda, yetarlicha mos materiallar ekspert ishini osonlashtirib, unga yozuvning **o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash** yoxud **muallifning yozuvdagi ma'lum bir o'ziga xos jihatlarini** topish uchun yordam beradi.

Yuqoridagilarga asosan ma'lum bo'ladiki vakolatli organlar tomonidan **sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun taqdim etilgan materiallar xulosa natijalariga ta'sir qiladi**.

Ayrim vakolatli organlarning bu boradagi bilim va ko'nikmalari yo'qligi esa bu jarayonlarni yanada qiyinlashtiradi. Bu borada rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalarida qanday yondashuvlar asosida ushbu masalalarni hal qilishini ko'rib chiqish ushbu sohani rivojlanishiga zamin yaratadi. *Xususan,*

### **AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI TAJRIBASI**

AQShning vakolatli organlari tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun **namunalarni taqdim etishga alohida ahamiyat** beriladi.

Namunalarning ikki xil turi mavjud: **rasmiy va norasmiy**.

**Rasmiy namunalar** – bu ayni paytdagi vaqt rejimida muallifligi gumonlanuvchi shaxsdan mavjud namunalar bilan taqqoslash uchun olinadigan eksperimental yoki shartli namunalar hisoblanadi. Ushbu turdagি namunalar **huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud va advokatlar** tomonidan olinishi mumkin.

Bunda, namunalar taqqoslanayotgan hujjatdagi yozuv qanday sharoitda amalga oshirilgan bo'lsa, **shunday sharoitda olinishi lozim**.

**Norasmiy namunalar** – bu muallifligi gumonlanuvchi shaxs tomonidan **yaqin uch-to'rt yil ichida** yozilgan xatlarni mavjud namunalar bilan taqqoslash uchun olinadigan namunalar hisoblanadi.

Namuna olish oldida dastlab nizodagi qo'lyozmaning muallifini aniqlash uchun namunalar tadqim etish jarayoni quyidagi **3 ta asosiy bosqich** asosida tahlil qilinadi:

- hujjatlar va namunalar tekshiriladi hamda aniqlanishi mumkin bo'lgan **xususiyatlar qayd etiladi**;
- tekshirilayotgan hujjatning **o'ziga xosligi mavjud namunalar bilan taqqoslanadi**;
- Ekspertlar uchun shubhali hujjatning **haqiqiyligi va shubhalanuvchi shaxs uning muallifi yoki yo'qligi to'g'risida** xulosa chiqarish uchun qaysi xususiyatlar qimmatli ekanligini aniqlaydi.

**Bunda, namunalar yig'ishda bir nechta jihatlarga e'tibor qaratiladi:**

- **Solishtirilayotgan namunaga eng yaqin vaqtdagi namuna eng maqbul namuna** prinsipiga alohida ahamiyat berilishi;
- Namunalar olishda tekshirilayotgan **yozuvga o'xhash namunalarni olishga** e'tibor qaratiladi. Agar tekshirilayotgan **yozuv siyohda bo'lsa**, namunani ham **siyoh bilan olishga**, agar qalamda bo'lsa, taqqoslash uchun qalam bilan yozilgan namunalarni olishga hamda qog'ozni ham aynan o'xhashligiga;
- Imkon qadar tomonlardan **namunalar nima uchun ekanligini bildirmasdan olinishi** lozim bo'ladi. **Xatlar, tabriknomalar, o'zaro yozishmalar va eslatmalar** alohida ahamiyatga ega ekanligiga;
- Insonlarda **ko'chirish uchun berilgan hujjatlarga taqlid qilishga moyillik yuqoriligi** sababli, namunalar olish jarayonida shaxsga ko'chirish uchun aynan taqqoslanishi lozim bo'lgan namunalar taqdim qilinmasligiga;
- Har bir insonning **qo'lyozuvi bir necha omillar tufayli** tabiiy o'zgaruvchanlikni namoyon qiladi. **Qalam, marker** yoki **rangli qalam, kayfiyat (tushkunlik), ruhiy holati, tezlik qo'lyozuvidagi farqga hissa qo'shishi** mumkinligiga;
- Kichik o'zgarishlarga qaramay, **har bir kishi o'ziga xos qo'lyozma uslubiga ega**. Yozuvdagi egilganlik, jingalaklik va balandlik shaxsning kimligini ajratib berishiga;
- **Yoshlarning yozuvlaridagi o'zgarishlar** kattalarning yozuvidagi o'zgarishlardan farq qiladi. Bunga odatlар sabab bo'lib, **yoshi katta insonlar ko'proq turg'unlik holatida** bo'lgani sababli, vaqt ularning yozuvini o'zgarishiga unchalik ta'sir qilmasligiga.

## YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI TAJRIBASI

Yevropa davlatlarining sud-tergov organlari **qo'l yozuvini yig'ishda turli omillar qo'l yozuvida o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratishadi.**

Ularning fikriga ko'ra, **yoshning o'tishi va kasalliklar yozish ko'nikmalarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.**

O'smirning qo'l yozuvi **qisqa vaqt ichida** keskin o'zgarishi mumkin. **Giyohvandlik bilan og'rigan** odam **qo'l yozuvida tub o'zgarishlarga duch kelishi** sababli giyohvandlikdan oldin olingan qo'l yozuvi namunalari keyingi yozuvni aniq aks ettirmaydi.

**Qo'l yozuvi inson hayoti davomida** asta-sekin o'zgarib turishi, lekin ba'zi omillar qisqa vaqt ichida qo'l yozuvida keskin o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligi bois, **qo'lyozmani o'xshash vaqt oralig'ida va shunga o'xshash sharoitlarda solishtirishga** alohida e'tibor qaratiladi.

Shu sababli, qon tomirlari, kasallik yoki turmush o'rtog'ini yo'qotish kabi travma yoki dori-darmonlar yoxud giyohvand moddalarni iste'mol qilish mumkinligini e'tiborga olib, **namuna olinayotgan shaxsning hayoti diqqat bilan o'rganiladi.**

Tekshirilayotgan hujjatga ham e'tibor qaratiladi, **ya'ni chiziqli qog'ozda bo'lsa, chiziqli qog'ozga yozilgan** hujjatlarni agar tekshirilayotgan hujjatda barmoq izi dastxat qilib qoldirilgan bo'lsa namuna hujjatlari ham shunday to'planadi.

**Yevropa Ittifoqi** tomonidan qabul qilingan protokolga ko'ra, sud-xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ekspert namunalardagi quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

1. **Yozuv holati** (*Harflar to'lqinlimi yoki ular tartibsiz va titroqlimi*);
2. **Yozuvdagagi so'zlarning oraliq joylashuvi** (*So'zlar teng joylashganmi yoki zichmi*);
3. **Yozuv hajmining turg'unligi** (*Balandlik va kenglik nisbati mos keladimi*);
4. **Yozuvdagagi ma'nolarning davomiyligi** (*Yozuv davomlimi yoki yozuv uzuq holatdami*);
5. **Xatlarning bir-biriga ulanishi** (*Bosh va kichik harflar bir-biriga ulanganligi*);
6. **Xatlarning tugallanganligi** (*Xatlar to'liq tugallanganmi yoki yozuvning yarmida kamchilik bormi*);
7. **Kursiv va bosma harflardan foydalanilishi** (*Xat qaysi harflar bilan yozilgan bosmami yoki kursiv yoki ikkalasi hammi*);

- 8. Ruchkaning bosimi** (*Yuqori va pastga harakatlanishda bosim bir xilmi*);
- 9. Yozuvning qiyaligi** (*Chap, o'ng yoki turli xilmi*);
- 10. Chiziqdagi odatlar** (*Xat chiziqdam, undan tepadami yoki pastdami*);
- 11. Yozish uslubi** (*Matnda jingalak yoki ilmoq belgilar mavjudmi*);
- 12. Tutuq, ayiruvchi va tinish belgilaringning ishlatalishi** (*To'g'ri joylashganmi yoki noto'g'rimi*).

Vakolatli organlar tomonidan yuqoridagi jihatlar alohida inobatga olinib materiallar to'planadi.

### XITOY TAJRIBASI

Xitoy davlat tajribasiga ko'ra, sud-tergov organlariga qulayliklar yaratish maqsadida oddiy qo'l yozuvi, shartli o'zgaruvchan qo'l yozuvi, niqoblangan qo'l yozuvi, taqlid qilingan qo'l yozuvi, imzo qo'lyozmasi va raqamli qo'l yozuvi bo'yicha **alohida standartlar va talablar** belgilangan.

Asosiy namuna yoki maxsus namuna bo'l shidan qat'i nazar, u standartlarga mos kelishi kerak, ya'ni namunada ortiqcha argumentlar bo'lmasligi, **barqaror identifikatsiya effektlari mavjud bo'lishi**, identifikatsiyalash uchun yaroqlilikning yuqori aniqlik darjasini, **ekspert tekshiruvi uchun mos va shaxs o'zi bergan namunadan identifikatsiyalashda foydalanishga rozi bo'lishi kerak** (jinoyat bo'yicha ishlar bundan mustasno).

Sud-tergov organlari tomonidan namunalarni olishda quyidagi **beshta asosiy** texnik ko'rsatkich e'tiborga olinishi lozim:

- **tekshirilayotgan hujjatining o'ziga xos xususiyatlari**;
- tekshirish materiali va olingan **namunaviy hujjat o'rtasidagi o'xshash xususiyatlarning miqdori va sifat** jihatdan mos kelishi;
- tekshirish materiali va olingan namunaviy hujjat o'rtasidagi turli xil xususiyatlarning **miqdori va sifati jihatdan mos kelishi**;
- tekshirish materiali va namunaning **o'xshash va farqli xususiyatlarining tabiat**;
- tekshirish materiali va namunaning **o'xshash va farqli xususiyatlarning umumiyligi** holati.

Yuqoridagi **5 ta asosiy** texnik ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birisini to'ldirib turadi.

**Muhim! O'rganilgan aksar xorijiy davlatlarda bu turdagি eskpertiza xulosalari ehtimoliy ko'rinishda beriladi.**

## 6. TAQQOSLASH UCHUN TAVSIYA ETILGAN NAMUNALARING SONI

Yuqorida keltirilgan qoidalar bilan bir qatorda, tekshirilayotgan obyektlarni bajarilish xususiyatlari (*o'z dastxatini o'zgartirish yoki boshqa shaxsning yozuviga taqlid qilish bilan bajarilgan va h.k.*)ga bog'liq bo'lgan, dastxat (imzo) namunalarini olish qoidalari ham mavjud.

**BUNI BILISH MUHIM!**

Taqqoslash materiallarining yetarli soni taqdim qilinishi juda muhimdir. Namunalar har bir ekspertiza uchun turli miqdorda talab etiladi. Sud-xatshunoslik obyektlari va ekspert oldiga qo'yilgan vazifalar turli bo'lganligi sababli solishtiruv namunalar soni bo'yicha aniq bir tavsiya berish qiyin.

Masalan, ayrim diagnostik masalalarni yechish uchun 50 varaqqacha dastxat namunalari talab qilinadi. Lekin quyidagi umumiy qoidaga amal qilish maqsadga muvofiqdir: shaxsni dastxatning erkin namunalari 6-8 varaqdan kam bo'lmasligi, imzosining erkin namunalari esa, har xil hujatlarda bajarilgan bo'lib, 10 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Dastxat va imzoning tajribaviy namunalari 8-10 varaqda bo'lishi kerak.

Dastxat va imzoning erkin yoki tajribaviy namunalarini ayrim sabablarga ko'ra taqdim etishning iloji bo'lmasa, bu holat ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim)da ko'rsatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan ekspertga taqdim etiladigan namunalarning hajmi nisbiydir. Solishtiruv materiallarining yetarli yoki yetarli emasligini faqat tadqiqot o'tkazish jarayonida ekspert tomonidan aniqlaydi.

## 7. TAQQOSLASH UCHUN TAVSIYA ETILGAN NAMUNALARING SONI BO'YICHA JADVAL

| Tadqiqot qilinayotgan obyektning turi                                     | Erkin namunalar   | Tajribaviy (eksperimental) namunalar   |
|---|---|--|
| katta yoki o'rta hajmli qo'lida yozilgan matn                             | 5-10 varaqda  | 6-9 varaqda  |
| kichik hajmdagi matn (4-10 so'z), qisqa yozuv (1-3 so'z)                  | turli xil hujjatlardagi 15-20 varaqlarda  | 15-20 varaqda har biri 7-9 ta yozuvdan iborat bo'lib, matnni so'zma-so'z ijro etish (qisqa yozuv)  |
| raqamlardan iborat yozuv  | raqamli va harf yozuvlarini o'z ichiga olgan turli xil hujjatlar 15-20 varaqlarda                               | 6-9 varaqda o'rganilayotgan yozuvlarga o'xshash kombinatsiyalarda va agar kerak bo'lsa, "uzb", "kg", "sm" va hokazo yo'ldosh so'zlari bilan  |
| muayyan shaxslar nomidan imzolar o'zi tomonidan bajarilgan savollarga     | uning nomidan o'rganilayotgan imzo ko'rsatilgan shaxsning imzolari 15-20 miqdorida, 3-5 varaqdagi qo'l yozuvi   | 5-7 varaqdagi imzolar, har birida 7-9 imzo, har birida 10-15 ta yozuvdan iborat 5-7 varaqdagi familiya, ism, otasining ismi ko'rinishidagi qo'l yozuvi   |
| noma'lum shaxslar nomidan imzolar   | 15-20 miqdorida taxmin qilingan ijrochining imzolari, 3-5 varaqdagi qo'l yozuvi                                 | har birida 7-9 imzodan iborat 5-7 varaqdagi taxmin qilingan ijrochining imzolari, o'rganilayotgan imzo ko'rsatilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yozuvi ko'rinishidagi qo'l yozuvi, shuningdek ushbu shaxs nomidan bajarilgan imzolar, har birida 7-9 ta yozuv va imzoning 5-7 varag'ida |
| muayyan shaxslar nomidan imzolarni taxminiy ijrochi bajarganmi savollarga | bundan tashqari, xuddi shu yoki shunga o'xshash qurilmada 15-20 imzo miqdorida olingan namunalar taqdim etiladi | bundan tashqari, xuddi shu yoki shunga o'xshash qurilmada 15-20 imzo miqdorida olingan namunalar taqdim etiladi  |

**Izoh:** Shuni ta'kidlash kerakki, har bir aniq holatda jadvalda ko'rsatilgan namunalarning miqdori va sifati bo'yicha yetarliligi ekspert tomonidan obyektning o'ziga xos xususiyatlaridan va yuzaga keladigan vaziyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**Sobirov Sobirjon Sobirjonovichning o'tirgan holda bajarilgan tajribaviy  
(eksperimental) imzo namunalari**

|                   |                   |
|-------------------|-------------------|
| /_____/<br>(imzo) | /_____/<br>(imzo) |

**Tanishdim:**

**S.S. Sobirov**  
(imzo)

**Tayloq tumani IIB huzuridagi  
Tergov bo'linmasi tergovchisi**

**A.A. Ibragimov**  
(imzo)

(M.O')

**Sobirov Sobirjon Sobirjonovichning tik turgan holda bajarilgan  
tajribaviy (eksperimental) imzo namunalari**

|                   |                   |
|-------------------|-------------------|
| /_____/<br>(imzo) | /_____/<br>(imzo) |

**Tanishdim:**

**S.S. Sobirov**  
(imzo)

**Tayloq tumani IIB huzuridagi  
Tergov bo'linmasi tergovchisi**

(M. O')

**A.A. Ibragimov**  
(imzo)

**Sobirov Sobirjon Sobirjonovichning yarim o'tirgan holatda  
bajarilgan imzo namunalari**

|                   |                   |
|-------------------|-------------------|
| /_____/<br>(imzo) | /_____/<br>(imzo) |

**Tanishdim:**

**S.S. Sobirov**

*(imzo)*

**Tayloq tumani IIB huzuridagi  
Tergov bo'linmasi tergovchisi**

*(M. O')*

**A.A. Ibragimov**

*(imzo)*

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.** Kriminalistika va ekspertiza.Darslik. yu.f.n. prof. v.b. D.Bazarova, yu.f.d. dos.I.R.Astanov –Toshkent: TDYU, 2020;
- 2.** O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi;
- 3.** O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi 2010-yil 1-iyundagi Qonuni;
- 4.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldag'i 73-sonli qarori bilan tasiqlangan "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Namunaviy nizom;
- 5.** <http://www.sudexpert.ru/possib/writing.php>;
- 6.** <https://sudexpert.gov.by/ru/handwriting.html>;
- 7.** Приказ Министра юстиции Республики Казахстан от 27 апреля 2017 года №484. Зарегистрирован в Министерстве юстиции Республики Казахстан 26 мая 2017 года № 15180 "Об утверждении Правил организации и производства судебных экспертиз и исследований в органах судебной экспертизы" <https://zakon.uchet.kz/rus/history/V1700015180/27.04.2017> ;
- 8.** International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN: 2319-7064 SJIF (2020): 7.803 Psychological Assessment and Handwriting Analysis to Determine Personality Traits of a Convicted Criminal - A Case Study Meenakshi Bhardwaj, Asha Srivastava;
- 9.** Handwriting Expertise Reliability: A Review Bing Li1, Nian Li <https://journals.lww.com/jfsm/pages/default.aspx>.